

IQTISODIYOTNING TARKIBIY O‘ZGARISHLARINI KICHIK BIZNES TARAQQIYOTINI TA’MINLASHDAGI ROLINI BAHOLASH MASALALARI

Elov Olimdjon Komilovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Navoiy viloyatida iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishlarini ro‘yxatdan o‘tgan va faol kichik biznes subyektlari soniga ta’sirini baholash modellari ishlab chiqilgan. Ishlab chiqilgan modellar asosida aniqlangan elastiklik koeffitsiyentlari qiyosiy tahlili amalga oshirilgan va tarmoqlardagi o‘zgarishlar ta’siri baholangan. Shuningdek, kichik biznes subyektlari faollik darajasiga tarmoqlar ta’sirini baholash natijalari keltirilgan. Olingan natijalarga tayanilgan holda mintaqada kichik biznesni rivojlantirishning istiqbollari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi, model, ARMAX model, determinatsiya koeffitsiyenti, faollik darajasi.

Аннотация

В данной работе разработаны модели оценки влияния структурных изменений в экономике на количество зарегистрированных и действующих субъектов малого бизнеса в Навоийской области. Проведен сравнительный анализ на основе определения коэффициентов эластичности, определенных разработанными моделями, а также дана оценка влияния изменений в секторах. Также представлены результаты оценки влияния секторов на уровень активности субъектов малого бизнеса. На основе полученных результатов определены перспективы развития малого бизнеса в регионе.

Ключевые слова: малый бизнес, структурная структура экономики, модель, модель ARMAX, коэффициент детерминации, уровень активности.

Abstract

In this paper developed models for assessing impact of structural changes in economy on number of registered and active small business entities in Navoi region. Carried a comparative analysis based determined of the elasticity coefficients defined by developed models, as well as assessed impact of changes in sectors. Also, presented results of assessing impact of sectors on activeness level of small business entities. Based on obtained results, identified perspectives for the development of small business in region.

Keywords: small business, structural structure of economy, model, ARMAX model, coefficient of determination, activeness level.

KIRISH

Kichik biznes ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosini ta’minlaydi [2], soha rivojini ta’minlash, istiqbollarini belgilash dolzarb masalalardan hisoblanadi. Aynan kichik biznes turli tarmoqlar taraqqiyoti bilan bog‘liqligi ularni rivojlantirishda

iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar ta'sirini baholash masalasini dolzarbligini oshiradi.

Aynan, kichik biznes iqtisodiy taraqqiyotni muhim vosita hisoblanib, bugungi murakkab vaziyatda iqtisodiyotning muhim yo'nalishi sifatida qaralayotgan yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash hamda barqaror rivojlanishga xizmat qiladi [4]. Bundan ko'rinadiki, kichik biznes barqaror iqtisodiy o'sish, tarmoqlarni rivojlantirishda bugungi kun talablarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu sababli mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashning strategiyalarini ishlab chiqishda kichik biznesga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60 sonli farmoni doirasida mamlakatimiz taraqqiyotini belgilovchi 100 ta maqsad ishlab chiqildi. Ushbu strategiyaning 29-maqsadida: "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish." vazifasi qo'yilgan [1].

ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznesni rivojlantirishning nazariyl hamda uslubiy asoslari, taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi omillar, qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kabi qator mavzularda ilmiyl tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Xususan, tadbirkorlikni o'ziga xos xususiyatlari [2], kichik biznesning iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdagi roli va ahamiyati [3], milliy iqtisodiyotda kichik biznesning roli [5], turli mamlakatlarda kichik va o'rta biznesni tasniflash mezonlarini qiyosiy tahlili [6], Osiyo mamlakatlarida kichik va o'rta korxonalar rivojini ta'minlashdagi muammolar va ularni yumshatish yo'nalishlari [7], global iqtisodiyotda kichik biznesning muammolari [8] kabi mavzularda tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Bundan tashqari kichik va yirik biznesning iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdagi roli [9], kichik va o'rta korxonalarini muvaffaqiyatsizliklarini bartaraf etishning istiqbolli yo'nalishlari [10], rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotda kichik biznesning ahamiyati [11], kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari [12] ilmiyl tadqiqot ishlarida o'z yechimini topishgan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda iqtisodiyot tarmoqlaridagi tarkibiy o'zgarishlarning kichik biznes subyektlari soni va ularning ishlab chiqargan mahsulot hajmiga ta'sirini baholash uchun ARMAX regressiya modellari qo'llanildi. Har bir tarmoq kesimida alohida modellar asosida elastiklik koeffitsiyentlari aniqlanib, ularning iqtisodiy mazmuni tahlil qilindi. Modellar avtokorrelyatsiya muammosini bartaraf etish uchun kechikkan tasodifiyl o'zgaruvchini o'z ichiga oldi. Model sifatini baholashda determinatsiya koeffitsiyenti (R^2), MAPE va Styudent mezonlari asos qilib olindi. Shuningdek, kichik biznes subyektlari faollik darajasining sektoral farqlari OLS yordamida tahlil qilinib, faoliyl samaradorligiga tarmoqlarning nisbiyl ta'siri aniqlashtirildi. Har bir baholash

bosqichi natijalarning iqtisodiy talqini bilan boyitilib, ularning mintaqaviy strategik ahamiyati aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznesni rivojlanishida tarmoqlar kesimidagi taqsimotning o'zgarishi, boshqacha aytganda qaysi turmoqda ular uchun shart-sharoitlarni qanchalik darajada yaratilganligini baholash hamda tarmoqlar kesimida kichik biznes subyektlari soni va nisbati o'zgarishlarini umumiy natijalarga ta'sirini baholash soha rivojlanishini istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi. Shuni hisobga olgan holda viloyatda kichik biznes subyektlarining tarmoqlar kesimidagi nisbatlari o'zgarishlarini qarab chiqamiz.

Tadqiqotlarimiz natijalarini ko'rsatishicha viloyatda ro'yxatdan o'tgan kichik biznes subyektlari sonini oshishi bilan soha vakillari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmi orasida teskari bog'liqlik mavjud. Bunga iqtisodiyotdagi tarkibiy tuzilishning o'zgarishi ta'sirini baholash maqsadida quyidagi modellar ishlab chiqildi.

$$\ln(Y) = 8,71 + 0,68 * \varepsilon_{t-1} - 0,13 * \ln(X_{2Q})$$

$$z = (21,0) \quad (3,51) \quad (-2,22)$$

$$R^2 = 0,65 \quad MAPE = 0,88$$

Bu yerda: Y_n – Navoiy viloyatida kichik biznes subyektlari tomonidan yaratilgan yalpi mahsulotning qiymati (mlrd. so'm); X_{2Q} — Navoiy viloyatida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida ro'yxatdan o'tgan kichik biznes subyektlari soni.

$$\ln(Y) = 9,18 + 0,61 * \varepsilon_{t-1} - 0,18 * \ln(X_{2S})$$

$$z = (18,02) \quad (3,17) \quad (-2,73)$$

$$R^2 = 0,68 \quad MAPE = 0,82$$

Bu yerda: X_{2S} — Navoiy viloyatida sanoatda ro'yxatdan o'tgan kichik biznes subyektlari soni.

$$\ln(Y) = 9,51 + 0,58 * \varepsilon_{t-1} - 0,24 * \ln(X_{2QU})$$

$$z = (15,41) \quad (2,93) \quad (-2,80)$$

$$R^2 = 0,68 \quad MAPE = 0,83$$

Bu yerda: X_{2QU} — Navoiy viloyatida qurilish sohasida ro'yxatdan o'tgan kichik biznes subyektlari soni.

$$\ln(Y) = 8,82 + 0,56 * \varepsilon_{t-1} - 0,12 * \ln(X_{2SA})$$

$$z = (25,24) \quad (2,89) \quad (-2,97)$$

$$R^2 = 0,69 \quad MAPE = 0,78$$

Bu yerda: X_{2SA} — Navoiy viloyatida savdo sohasida ro‘yxatdan o‘tgan kichik biznes subyektlari soni.

$$\ln(Y) = 9,18 + 0,63 * \varepsilon_{t-1} - 0,18 * \ln(X_{2X})$$

$$z = (14,96) \quad (3,29) \quad (-2,27)$$

$$R^2 = 0,64 \quad MAPE = 0,86$$

Bu yerda: X_{2X} — Navoiy viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasida ro‘yxatdan o‘tgan kichik biznes subyektlari soni.

$$\ln(Y) = 9,26 + 0,63 * \varepsilon_{t-1} - 0,20 * \ln(X_{2B})$$

$$z = (17,01) \quad (3,35) \quad (-2,70)$$

$$R^2 = 0,68 \quad MAPE = 0,80$$

Bu yerda: X_{2B} — Navoiy viloyatida boshqa sohalarda ro‘yxatdan o‘tgan kichik biznes subyektlari soni.

Har bir modelni ishlab chiqishda avtokorrelyatsiya muammosini bartaraf etish uchun tasodifiy o‘zgaruvchidan foydalanildi. ushbu o‘zgaruvchini kiritilishi ta’sirni ifodalovchi koeffitsiyentni deyarli o‘zgarishdan qolishini ta’minladi, biroq muammoni bartaraf etishga yordam berdi. Keltirilgan mezonlar natijalariga ko‘ra ishonchli, faqat tanlangan omillar ta’sirini baholash uchun keltirib o‘tilgan determinatsiya koeffitsiyentlarining 0,6 va 0,7 atrofida o‘zgarib, mazkur ko‘rsatkichlar yetarli darajada katta bo‘lib, modelning ishonchliligini asoslaydi. Bundan tashqari model asosida aniqlangan qiymatlar bilan, haqiqiy qiymatlar farqini foizdagi ko‘rinishi (MAPE)ning birdan kichik bo‘lishi moslik darajasini 99 foizdan yuqoriligini ko‘rsatadi.


Aniqlangan elastiklik koeffitsiyentlari manfiy qiymatga ega bo‘lib, viloyatda ro‘yxatdan o‘tgan kichik biznes subyektlari sonining tarmoqlar kesimidagi o‘zgarishi kichik biznes subyektlari tomonidan yaratilgan yalpi mahsulot hajmiga salbiy ta’sirga egaligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, qishloq o‘rmon, baliq xo‘jaligida ro‘yxatdan o‘tgan kichik biznes subyektlari sonini bir foizga oshishi yaratilgan mahsulotni 13 foizga kamayishiga sabab bo‘lsa, sanoat va qurilish sohasida mazkur ko‘rsatkich salbiy ta’sirining oshishi kuzatilib, mos ravishda -0,18 va -0,24 ni tashkil qilgan.

Savdo sohasida elastiklik koeffitsiyenti -0,12 tashkil qilgani holda nisbatan past, biroq xizmat ko‘rsatish sohasida -0,18 ga teng bo‘lib, salbiy ta’siri yuqoriligini ko‘rsatmoqda. Ushbu natijalar kichik biznes subyektlari sonini miqdoriy oshishi bilan yakuniy natijalarning bir biriga mos kelmayotganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, tarmoqlar kesimida aniqlangan koeffitsiyentlarning farqli qiymatlarga egaligi har bir tarmoq kesimida sohani rivojini ta’minlash bo‘yicha muammolarni aniqlash

lozimligini asoslaydi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan tahlilni faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari sonini tarmoqlar kesimidagi o‘zgarishlari bo‘yicha ham qarab chiqildi. Regression tahlil natijalari modellarni ishonchligini asosladi va aniqlangan elastiklik koeffitsiyentlari quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi (1-rasm).

Ushbu koeffitsiyentlarning nisbatan yuqori bo‘lishi, kichik biznes subyektlari faollik darajasini ta‘minlash bilan bog‘liq muammolarning mavjudligini asoslaydi va farqning tarmoqlar kesimida o‘zgarishi muammoning ahamiyatlilik darajasini ifodalaydi. Ya‘ni, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida aniqlangan ikkala koeffitsiyentning farqini 0,01 ga teng bo‘lgani holda, sanoatda 0,03, qurilishda 0,04 ni tashkil qilishi muammoning nisbatan yuqoriligini ko‘rsatadi. Ushbu farqning xizmatlar sohasida hamda boshqa turlarda mos ravishda 0,04 va 0,05 tashkil qilgani holda yuqori ekanligini ko‘rish mumkin.



1-rasm. Navoiy viloyatida iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari sonidagi o‘zgarishni yalpi mahsulot hajmiga ta‘sirini baholash uchun aniqlangan elastiklik koeffitsiyentlari.¹

Faollik darajasini oshirishda tarmoqlarning ta‘sirini baholash masalasiga to‘xtalib o‘tamiz. Barcha tarmoqlar qamrab olingan holda amalga oshirilgan tahlil natijalari qishloq xo‘jaligidagi kichik biznes subyektlari faollik darajasining ta‘sirini ifodalovchi koeffitsiyentning Styudent mezoni natijalariga ko‘ra adekvat emasligi aniqlandi. Shu sababdan modelda quyidagi tarmoqlar kiritildi.

$$Z_1 = 0,37 * Z_{1S} + 0,10 * Z_{1QU} + 0,34 * Z_{1SA} + 0,20 * Z_{1X}$$

Bu yerda: Z_1 – Navoiy viloyatida kichik biznes subyektlari faollik darajasi (foizda); Z_{1S} - Navoiy viloyatida sanoatda kichik biznes subyektlari faollik darajasi (foizda); Z_{1QU} — Navoiy viloyatida qurilishda kichik biznes subyektlari faollik darajasi (foizda); Z_{1SA} - Navoiy viloyatida savdoda kichik biznes subyektlari faollik darajasi

¹ Muallif ishlanmasi

(foizda); Z_{IX} — Navoiy viloyatida xizmat ko‘rsatishda kichik biznes subyektlari faollik darajasi (foizda).

Ushbu model asosida ilmiy xulosalarni shakllantirish uchun dastlab uning ishonchliligini asoslash talab qilinadi. Buning uchun zarur bo‘lgan mezonlar va ularning natijalariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz (1-jadval).

1-jadval

Navoiy viloyatida kichik biznes subyektlari faollik darajasiga tarmoqlar ta‘sirini baholash natijalari¹

Model 4: OLS, using observations 2014-2025 (T = 12)

Dependent variable: Z1

	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>t-ratio</i>	<i>p-value</i>	
Z1S	0.366498	0.0167289	21.91	<0.0001	***
Z1QU	0.0991367	0.0240646	4.120	0.0033	***
Z1SA	0.335607	0.0117205	28.63	<0.0001	***
Z1X	0.199025	0.0185628	10.72	<0.0001	***
Mean dependent var	90.94998		S.D. dependent var		11.58521
Sum squared resid	0.019537		S.E. of regression		0.049417
Uncentered R-squared	1.000000		Centered R-squared		0.999987
F(4, 8)	10312840		P-value(F)		7.07e-27
Log-likelihood	21.49496		Akaike criterion		-34.98992
Schwarz criterion	-33.05029		Hannan-Quinn		-35.70803
Rho	-0.458932		Durbin-Watson		2.686136

Keltirilgan Student testi natijalari barcha koeffitsiyentlarning ta‘siri mavjudligini, shuningdek ular ehtimollik ko‘rsatkichlari ishonchliligi yuqoriligini asoslamogda. Determinatsiya koeffitsiyentining birga tengligi natijaviy ko‘rsatkichlardagi tebranishlar tanlab olingan omillarga to‘liq bog‘liqligini ko‘rsatadi. Fisher mezoni natijalarining juda katta qiymatga ega bo‘lishi uning jadval ko‘rsatkichlariga e‘tibor qaratishga zarurat qoldirmaydi. Durbin-Uatson mezoni natijalari esa qarorsizlik oralig‘iga to‘g‘ri kelgani holda avtokorreyatsiya mavjud yoki mavjud emasligi bo‘yicha xulosa chiqarishga imkon bermaydi. MAPE ko‘rsatkichining 0,04 ga tengligi modelning modelning xatolik darajasi 0,04 foizga tengligini ko‘rsatmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu ikkala holat bo‘yicha aniqlangan natijalar viloyatda kichik biznes subyektlari sonini oshirish bo‘yicha amalga chora-tadbirlar faqat miqdoriy ahamiyatga ega bo‘lmoqda, aslida esa ularning mahsulot hajmiga salbiy ta‘siri kuzatilmoqda. Viloyatda iqtisodiyotning hech bir tarmog‘ida tashkil qilinayotgan kichik biznes subyektlari sonining yalpi mahsulotga ijobiy ta‘siri mavjud emasligi aniqlandi. Shuningdek, mintaqada kichik biznes subyektlari faollik darajasini sanoat va savdo sohalarining ta‘siri yuqori bo‘lib, ushbu sohalarida kichik biznes subyektlari faollik darajasini bir foizga oshishi umumiy faollik darajasini mos ravishda 0,37 va 0,34 foizga oshirishi kuzatiladi. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish va qurilish sohalarida mos ravishda 0,20 va 0,01 ni tashkil qiladi.

¹Muallif ishlanmasi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60 sonli farmoni
2. Druker, 2009. Innovation and Entrepreneurship, New York: Harper Collins.
3. OECD, 2017 a. Increasing productivity in small traditional enterprises: programmes for upgrading management skills and practices, OECD Working Party on SMEs and Entrepreneurship, CFE/SME (2016) 6.
4. Murat Bayraktar. Neşe Algan, The Importance Of SMEs On World Economies. International conference on eurasian economies 2019.
5. Chernychko, T. (2010). The place and importance of small business in the development of the national economy. Scientific Bulletin of NLTU of Ukraine, vol.20 (4).
6. Pletnev, D., Nikolaeva, E., Campa, A. (2015). Comparative Analysis of Criteria for Classifying Enterprises to Small and Medium Business in Different Countries. Business Strategy, vol.9 (17).
7. Barbaroshie, E., Nazar, N. (2014). Features of small business development in the Republic of Moldova. CYBERLENINKA. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-razvitiya-malogo-biznesa-v-respublike-moldova>
8. Yoshino, N. and F. Taghizadeh-Hesary. 2016. Major Challenges Facing Small and Mediumsized Enterprises in Asia and Solutions for Mitigating Them. ADBI Working Paper 564. Tokyo: Asian Development Bank Institute. Available: <http://www.adb.org/publications/majorchallenges-facing-small-and-medium-sized-enterprises-asia-and-solutions/>;
9. Kelly Edmiston. The role of Small and Large Business in Economic Development. Federal Reserve Bank of Kansas City, Economic review, second quarter 2007 (www.KansasCityFed.org)
10. Paul Vandenberg, Pornpinun Chantapacdepong, Naoyuki Yoshino. SMEs in Developing Asia New Approaches to Overcoming Market Failures, ASIAN DEVELOPMENT BANK INSTITUTE, TOKYO, 2016. P.20
11. Hidayet KESKIN, Canan SENTURK, Onur SUNGUR, Hakan M. KIRIS. The Importance of SMEs in developing Economies. 2nd International Symposium on Sustainable Development, June 8-9 2010, Sarajevo
12. Гафуров У.В. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солишнинг иқтисодий механизмларини такомиллаштириш. (08.00.08 – Тадбиркорлик ва кичик бизнес иқтисодиёти, 08.00.01 – Иқтисодиёт назарияси (иқтисодиёт фанлари)). Иқтисод фанлари доктори ... дисс. Т., 2017. – 258 б..



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournlbot](https://t.me/marketinjournlbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**